

NOMINATSIYANING O'ZIGA XOS JIHATLARI

Sohiba Otaxonova

(UrDU O'zbek tilshunosligi kafedrasi magistranti)

Annotatsiya: *Ushbu maqolada o'zbek nominatsiyasiga xos bo'lgan xususiyatlar va ismlarning lingvokulturologik xususiyatlari tahlil qilingan.*

Kalit so'zlar: *Antroponim motiv, nominatsiya motivatsiya.*

“Ism va ism qo'yish odati – biror yakka shaxsni o'zgalardan farqlash, ajratish ehtiyoji tufayli tug'ilgandir. Keyinchalik yuzaga kelgan va rasmiy tus olgan familiyalar, laqablar, ota ismlari, ajdodiy (pantronomik) nomlar va ularning turli-tuman ko'rinishlari, kishini atashning boshqa xil shakllari va usullari ana shunday hayotiy ehtiyojning qonuniy mahsulidir”.⁹¹

Ma'lumki, har qanday motivatiyada nom berish uchun sabab bo'luvchi belgi – nomning qanday bo'lishiga zamin hozirlovchi omil **motiv**, motiv asosida nomlanish **motivatsiya** deb yuritiladi⁹². *Motiv* so'zi aslida lotincha *moddo* – “harakatlantiruvchi” ma'nosini anglatadi, ammo bu so'zning musiqada “ohang” ma'nosini, psixologiyada “inson faoliyatida muayyan maqsadni bajarishga sabab bo'luvchi omil” ma'nosini anglatishi qayd etiladi⁹³. Har qanday antroponimning motivatsiya jarayonida madaniy unsurlar mavjudligini bevosita kuzatish mumkin. Ma'lumki, onomastik birliklar vujudga kelishida obyektini nomlash ikkilamchi (ba'zan uchinchi) nominatsiya sanalib, bu jarayon muayyan asosga tayanadi, mazkur asos tilshunoslikda motiv termini bilan ifodalanadi.

Ma'lumki bola tug'ilganidan keyin o'zbek oilalarida aqiqa marosimi o'tkaziladi va bolaga nom beriladi. Ba'zi ishonchlarga ko'ra hali tug'ilmagan bolaga ism tanlash nomaqbul hisoblanib, bu tug'ilajak farzand uchun xayrsiz hisoblanadi.

O'zbek madaniyatiga xos bo'lgan jihatlardan biri yangi tug'ilgan bolaga uning bobosi yoki buvisi tomonidan nom berilishidir. Bunda yoshi katta avlod, asosan, o'tgan ajdodlar ismiga murojaat qilishadi. Boshqa xalqlarda ham bunday motiv mavjud. Tursunov Shokirjon tomonidan yozilgan “O'zbek tilidagi ba'zi antroponimlarning lingvomadaniy tasnifi” maqolasida shunday fikrlar berilgan:

Karagas (Sibir atrofida yashovchi etnos)larda vafot etgan odamning nomini yangi tug'ilgan bolaga qo'yishmaydi. Chunki marhumning arvohi achchiqlanib qolishi, ism bilan birga ajal bolaga ham o'tishi, yuqishi mumkin deb o'ylashadi. Shuningdek, goldar (hozirgi Moskva, Smolensk atroflarida yashagan etnos)ning o'z bolasiga ism sifatida yaxshi kishilar nomini tanlashi ham bejiz emas. Xosiyatli nom kishini baxtli qiladi,

⁹¹ 1. Begmatov E. *Ism chiroyi*. Toshkent: 1994. 90 b.

⁹² Бегматов Э., Н.Улуков. *Ўзбек ономастикаси терминларининг изоҳли луғати*. – Наманган, 2006. 48б

⁹³ *Ўзбекистон миллий энциклопедияси*. – Тошкент: ЎзМЭ, 2004. 6-жилд. 96б

bolada yaxshi xislatlarni yuzaga keltiradi, yomon nom bu kishi uchun baxtsizlik, ofat, kasallik va o'lim keltiradi deb xayol qilishadi. Armanlar bo'lsa, bolamizga hayot bo'lgan qarindoshning ismiga o'xshash nom bersak, qarindoshning umri qisqarib qoladi, deb o'ylashadi. Chaqaloqqa o'tgan ajdodlar ismini berish orqali bir qancha maqsadlar ko'zlanadi:

-o'tgan ajdodlarga hurmat va ularning ismlari mangu davom qilishi

-ajdodlar ruhining chaqaloqqa yo'ldosh bo'lishi uni umri davomida qo'llab-quvvatlashi

-aynan ismi berilgan ajdodining xulq-atvoriga ega bo'lishi, unga o'xshagan shaxs bo'lib voyaga yetishini ko'zlash

-farzand ismining noodatiy bo'lishi

“Har qanday yangilik unutilgan eskilikdir” naqlining isboti ismlar misolida ko'rilishi mumkin. Bugungi kunda ham o'zbek oilalarida bu odat saqlanib qolgan oldingidan farqli ravishda ismlar biroz o'zgartirilgan ko'rinishda chaqaloq beriladi. Bunga sabab ismdagi eskilik bo'yog'ini kamaytirish, unga yangicha ohang berish va ism o'zgartirilishining oldini olishdir. Guvoh bo'linadiki, ayrim shaxslar ma'lum yoshga yetganida “ism almashtirish” ga qaror qiladi. Buning dastlabki sabablaridan biri chaqaloqligida tanlangan ismning eskiligi va uning ism egasi uchun noqulay ekanligidir. Shularni inobatga olgan holda nominatorlar ismga yangicha chiroy bag'ishlovchi qo'shimchalardan qo'shishadi, yoki ism tarkibidagi ayrim tovushlarni tushurish boshqasiga almashtirish, yangi morfema qo'shish usulini tanlashadi. Bunday ko'rinishli ismlarga ayrim misollar keltirish mumkin:

Shukrjon-Shukrona, Sherpajon(o'guz shevasida shunday talafuz qilinadi)-Sharifa Darmonjon-Darmona, Shomurod-Shohmurod, Bibijon-Bibixon, Shodimon-Shodiyona, Sharifboy-Sharof, Tursunxon-Tursunoy, Bibijon-Bibixonim...

“Onomastik nominatsiya jarayonida ikki holat kuzatiladi: 1) yangi original ism ijod qilish; 2) an'anaviy nomlar orasidan ism tanlash. Birinchi holat o'tmishda ko'p kuzatilgan. Mana shu holat til antroponimiya tizimi, fondining yaratilishiga sabab bo'lgan va ikkinchi holatga imkon yaratgan⁹⁴. Bugungi kunda yangilik bo'yog'ini yo'qotgan va nominatorlar tomonidan kamdan-kam murojaat qilinayotgan bunday ismlar o'zbek onomastikasida o'z salmoqli o'rniga ega. Onomastik birliklar ham xuddi leksemalar kabi eskiradi va iste'moldan chiqib ketadi. Ularning yashovchanligini ta'minlovchi yagona usul ism sifatida qo'yilishi yoki asar qahramonlari nomi sifatida saqlanib qolishidir. So'ngi yillar statistikasiga nazar solinsa ayrim ismlarning keng yoyilganligi va bir xil ismli shaxslar ancha ko'payganiga guvoh bo'lishimiz mumkin. 2019 va 2020-yillardagi statistika ma'lumotlaridan ma'lum bo'lishicha o'g'il bolalar orasidagi eng ko'p tanlangan ismlar – Muhammadali, Mustafo, Abdulloh, Imronbek, Muhammad, qiz bolalar orasida-Soliha, Muslima, Imona, Mubina, Shukrona.

⁹⁴ Юлдашев Д. Атоқли отларнинг антропоцентриқ тадқиқи. Монография. – Тошкент, 2020. – Б.181.

Dunyoda eng ko'p tarqalgan ism Muhammad hisoblanib, dunyoda 150 mln dan ortiq Muhammad ismli odam bor. Nafaqat musulmon davlatlarida, balki Yevropada ham bu ism juda mashhur hisoblanadi. Sofiya ismi eng keng tarqalgan ayol ismlaridan biri. Ko'rinib turibdiki, so'ngi paytlarda islomiy ismlar ancha ommalashgan.

O'zbeklarda ikkiismlilik hodisasi bo'lib, bu qadimgi davrlarga borib taqaladi. Eski ishonchlarga ko'ra chaqaloq tug'ilgan paytida unga haqiqiy ism bilan birgalikda soxta ism ham qo'yiladi. Soxta ism yoki aldamchi ism chaqaloqni turli balo-qazolardan asrash vazifasini bajaradi. Asl ism esa faqat yaqin qarindoshlargagina ma'lum qilinadi. Bundan tashqari ikkiismlilikni yana boshqa ko'rinishi mavjud bo'lib, bunda nominatorlar chaqaloqqa ism berish jarayonida ikki ismdan birini tanlay olmasdan har ikkisini is'temolda qo'llashadi. Shu tarzda shaxs yaqinlari orasida boshqa ismdan, jamiyatda esa boshqa ismidan foydalanadi.

Chaqaloq tug'ilgan paytda alohida belgi bilan tug'ilish holatlari uchrab turadi. Bunda xalq orasida maxsus ismlar bo'lib aynan ular bilan chaqirilganda o'sha tashqi belgi yo'qolib ketishiga ishoniladi. Badanida nor bilan tug'ilgan chaqaloqlarga Norjon. Anora, Nortoy ismlari norasmiy tarzda qo'yiladi. Asl ismidan jamiyatda faol pozitsiyaga o'tgan paytida foydalanadi.

Bobosi yoki buvisining ismi qo'yilgan chaqaloqlar kichikligidan boshqa shakllar bilan chaqiriladi. Bilamizki, o'zbek oilalarida, ayniqsa, ota-onaga hurmat alohida e'tirof qilinadi. Shu sababdan oila a'zolari va qarindoshlar davrasida ism egalari Bobo, Bobojon, Otes (o'g'uz shevasida), Onaxon, Onaqiz, Bibi, Onash kabi shakllar bilan chaqiriladi. Bular ko'pchilik nominatorlar tomonidan rasmiy ism sifatida ham tanlanadi.

Har qanday antroponimning kelib chiqishi va shakllanishi bevosita xalq tafakkuri, e'tiqodi, urf-odatlar va xohish irodasi bilan, bir so'z bilan aytganda, inson omili bilan chambarchas bog'liq. Deyarli barcha ismlarning yaratilish motivida insonning, ya'ni nominatorlarning istak, orzu va umidlari o'z ifodasini topgan. Umuman, ism berish jarayonining mohiyati shaxslarni bir-biridan farqlashgina emas, markazida inson turgan ulkan faoliyatning mahsulidir.